Dublikat

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№
2021- yil “__”_____

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2021 - yil “__”_____

TILSHUNOSLIK NAZARIYASI
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	230000- Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili

Fan/modul kodi *TNM1009*	**O‘quv yili** 2021-2022 2024-2025	**Semestr** 1,8	**ECTS – Kreditlar** 9	
Fan/modul turi Majburiy	**Ta’lim tili** O‘zbek		**Haftadagi dars soatlari** 4	
1.	**Fan nomi**	**Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)**	**Mustaqil ta’lim (soat)**	**Jami soat**
	Tilshunoslik nazariyasi	150	120	270

Fan dasturi SamDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasining 2021-yil _____dagi _____-son yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: Mahmadiyev Sh.S.

Fan dasturi Filologiya fakulteti o‘quv-uslubiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil _____dagi __-sonli bayonnoma)

Fakultet o‘quv-uslubiy kengash raisi: dots.Mahmadiyev Sh.

Fan dasturi Filologiya fakulteti ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil _____dagi ___-sonli bayonnoma)

Fakultet ilmiy Kengash raisi: prof.Pardayev A.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI • SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI • FILOLOGIYA FAKULTETI

Kelishildi:
SamDU o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor:

prof.Soleyev A.

Fanning maqsadi	
1	Fanni o‘qitishning maqsadi tilshunoslik sohasining predmeti, vazifalarini yoritish, fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, tilning ijtimoiy tabiati, shakllanish jarayoni, taraqqiyoti, til va jamiyat, til va tafakkur munosabati, til sathlari, dunyo tillari tavsifi, tasnifi, tilshunoslik maktablari, lingvistik tahlil metodlari, lisoniy universaliyalar va til strukturasi haqida ma’lumot berishdan iborat. “Tilshunoslik nazariyasi”ning mohiyati, metodlari, tushunchalari va terminlarini o’zlashtirish; fanning kategorial muammolari haqida nazariy bilimlarni egallash, innovatsiyalarni ta’lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya tizimidan keng foydalanish shuningdek, fanning bugungi kundagi dolzarb muammolarini belgilashdan iborat.

Fanning mazmuni	
Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)	
Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:	
M1	**Tilshunoslik fanining predmeti, maqsad va vazifalari.** Tilshunoslik mustaqil fan sifatida. Tilshunoslik fanining tushunchaviy terminologik apparati. Tilning ijtimoiy, biologik, fiziologik tabiati. Til kishilar o‘rtasidagi aloqa quroli sifatida.
M2	**Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning vujudga kelishi**
M3	**Tilning ijtimoiy mohiyati.** Til va jamiyat. Til taraqqiyotining jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liqligi. Kishilik tarixida urug‘dosh til, qabila tili. Elat, xalq, millat tili. Tilning ijtimoiy vazifalari: emotiv, akkumulyativ, estetik, metalisoniy va b. tilning jamiyatdagi ko‘rinishlari.
M4	**Og‘zaki va yozma nutq.** Og‘zaki va yozma nutq. Yozuv va savodxonlik muammolari.
M5	**Tillarning chatishuvi masalasi**
M6	**Til va tafakkur.** Til birliklari va mantiqiy tushunchalarning o‘zaro munosabati. Tafakkur – tashqi moddiy olamning kishilar miyasida aks etishi. Tafakkur mahsuli tildagi so‘zlar, so‘z birikmalari va jumlalar ekanligi. Til qurilishi qonunlari va tafakkur qonunlari (birliklari).
M7	**Til, tafakkur va nutq munosabati.** Til va nutqiy faoliyat. Nutq faoliyati. Og‘zaki va yozma nutq. Lisoniy va nutqiy birliklar. Til birliklarining alohida alohida tizim sifatida o‘zaro mutanosibligi. Lisoniy paradigma va lisoniy munosabatlarning asoiy turlari. Lisoniy tasnif asoslari.
M8	**Til ramzlar tizimi ekanligi.**

	Tilning semiotik tabiati. Til birliklarining tizim sifatidagi munosabati. Til strukturasi elementlar – til sathlari.
M9	**Tilshunoslik fani bo'limlari. Fonetik sath.** Tilshunoslik fani bo'limlari. Tilning fonetik tuzilishi, tovush sistemasi, unli va undosh tovushlar, bo'g'in, takt, fraza.
M10	**Leksik sath. Lug'at tarkibi.** Tilning leksik sathi, undagi o'zgarishlar, o'z va o'zlashgan qatlam, bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar, hosila ma'no, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, kinoya. So'zlarning shakl va ma'no munosabati. O'zbek tili lug'at tarkibi, tilda so'zlarning paydo bo'lishi, tushuncha va nom o'rtasidagi aloqadorlik. Lug'atshunoslik, luga't turlari, qomusiy va filologik lug'atlar. O'zbek tilida yaratilgan lug'atlar.
M11	**Morfemik va morfologik sath.** Morfologik qurilishi, o'zak va qo'shimcha, qo'shimchalarning turlari. So'z yasalishi. So'zlarni turkumlarga ajratish nazariyasi. Qadimgi hind va arab tilshunosligida so'z turkumlari nazariyasi, mustaqil so'z turkumlari va yordamchi so'z turkumlari.
M12	**Yozuv. Yozuv tarixidan.** Yozuv. Yozuv tarixidan. Yozuv turlari. Piktografik, ideografik, logografik va fonografik yozuvlar. O'rta Osiyo xalqlari tomonida qo'llangan yozuvlar. Yozuvning hozirgi ko'rinishlari.
M13	**Tillarning shakllanishi va taraqqiyoti.** Tillarning o'zaro ta'siri va rivojlanishi. Sinxronik va diaxronik o'zgarishlar. Tildagi tarixiy-fonetik o'zgarishlarni o'rganuvchi soha qiyosiy-tarixiy tilshunoslik ekanligi. Qardosh tillardagi (slavyan, german, roman tillari, turkiy tillar) tarixiy fonetik o'zgarishlar. Qiyosiy fonetikaning vazifalari.
M14	**Tillarning o'zaro ta'siri va rivojlanishi.** Tillarning o'zaro ta'siri va rivojlanishi. Sinxronik va diaxronik o'zgarishlar. Tildagi tarixiy-fonetik o'zgarishlarni o'rganuvchi soha qiyosiy-tarixiy tilshunoslik ekanligi. Qardosh tillardagi (slavyan, german, roman tillari, turkiy tillar) tarixiy fonetik o'zgarishlar. Qiyosiy fonetikaning vazifalari.
M15	**Dunyo tillari va tillar tasnifi.** Dunyo tillari. O'lik tillar. Tillarning geneologik va tipologik tasniflari. Til oilalari. Til guruhlari. Turkiy tillari oilasi. Qo'shimchali va qo'shimchasi tillar. Qo'shimcha turlari.
	8-semestrda ma'ruza mavzulari
M1	"Tilshunoslik nazariyasi" fanining mazmuni, maqsad va vazifalari. Fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalar. Kursning boshqa fanlar bilan o'zaro munosabati. "Tilshunoslik nazariyasi"ning tilshunoslikka oid nazariy va amaliy masalalarni hal qilishdagi asosiy fan sifatidagi ahamiyati haqida.
M2	Tilshunoslik fanining vujudga kelish tarixi. Til haqidagi fanning paydo bo'lishi.

M3	Tilshunoslik nazariyasi shakllanishining ilk davri. Tilshunoslik nazariyasi va uning shakllanishida yozuvning o'rni. Yozuv va uning taraqqiyot bosqichlari.
M4-5	Tilshunoslik maktablari ta'limotlarining asosiy mohiyati. Qadimgi hind va xitoy tilshunosligi. Qadimgi Yunoniston va Rimda tilshunoslik nazariyalari. Qadimgi asrlarda tilshunoslik. Qadimgi hind, grek, lotin va xitoy tilshunosligi. Panini tadqiqotlari. Aleksandriya grammatika maktabi (Dionisiy). Qadimgi Rim tilshunosligi (Varron). Qadimgi Xitoy lug'atlari. Qadimgi tilshunoslik va bugungi kun muammolari.
M6	O'rta asrlar tilshunosligi. Arab tilshunosligi. Arab tilshunosligi tarixidan. Arab tili, Abu al-Asuad ad-Duali, Abu Amir Iso Ibn Umar as-Sakafiy, Xalil ibn Ahmad al-Farhodiy, Sibaveyhi, Kufa va Basra maktablari.
M7-8	O'rta asrlar tilshunosligi. O'rta Osiyoda tilshunoslik. A.N.Forobiy, A.R.Beruniy, Ibn Sino, M.Zamaxshariylarning tilshunoslikka qo'shgan hissalari. "Saydana", "Asbob", "Muqaddimatul adab" asarlari haqida fikr-mulohazalar.
M9-10	Mahmud Koshg'ariy turkiy tillar qiyosiy grammatikasining asoschisi. Alisher Navoiyning chog'ishtirma tilshunoslikka asos solishi. Mahmud Koshg'ariy va uning lisoniy qarashlari. "Devoni lug'atit turk" asari haqida. Alisher Navoiyning chog'ishtirma tilshunoslikka asos solishi. "Muhokamat ul-lig'atayn" asari haqida.
M11	O'rta asrlarda Yevropada tilshunoslik. Lotin tili, realistlar, nominalistlar, Anselm, Rossellin, Abelyar, konseptualizm, bahslar, ideyalar.
M12	Yevropa uyg'onish davri tilshunosligi. Klassik va semit filologiyasiga qiziqish. Milliy lug'atlar va grammatikalarni yaratish. Milliy tillarning lug'atlari va grammatikalari yaratish, tilga tarixiy yondashishning tug'ilishi va taraqqiyoti.
M13	Umumiy ratsional-grammatikaning yaratilshi. Mantiqiy-grammatik qarashlar. Mantiqiy-grammatik qarashlar, til birliklarini mantiqiy birliklar asosida o'rganish, Pol-Royal umumiy grammatikasi.
M14-15	Umumiy tilshunoslik va qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning vujudga kelishi. Fridrix Shlegel, F.Bopp, Yakov Grimm, Rasmusk Rask, A.Vostokov, slavyan, roman-german, Vilgelm fon Gumboldt; qiyosiy metodning shakllanishi, qiyosiy metodning asosiy qoidalari, tilning "ichki shakli" haqidagi ta'limot, tilning xalq ruhi ekanligi, tillarning tipologik jihatdan tasnifi.
M16	Tilshunoslik maktablari. Moskva lingvistik maktabi, F.Fortunatov, A.Shaxmatov, M.Pokrovskiy, A.Tomson va hk; Qozon tilshunoslik maktabi, Boduen de Kurtene, N.B.Krushevskiy va hk; Peterburg lingvistik maktabi, A.X.Vostokov, I.I.Sreznevskiy, A.A.Shaxmatov, L.V.Shcherba, B.A.Larin va hk
M17	Tilshunoslikdagi asosiy yo'nalishlar. Naturalizm, psixologizm, til sotsiologiyasi (sotsiologizm), strukturalizm, etnolingvistika, neolingvistika. Avgust Shleyxer, "Yevropa tillari", "Darvin nazariyasi va tilshunoslik",

	M.Myuller; psixologizm: G.Shteyntal, A.Potebnya, V.Vunt, etnopsixologiya.
M18	Asosiy lingvistik ta'limotlar. V.fon Gumboldt – umumiy tilshunoslikning asoschilaridan biri. F.de Sossyur ta'limoti va hk.
M19	XX asr o'zbek tilshunosligida qo'lga kiritilgan yutuqlar. A.Fitrat, F.Kamol, A.G'ulomov, M.Asqarova, G.Abdurahmonov, Sh.Shoabdurahmonov, M.Mirtojiyev, S.Usmonov kabi olimlarning o'zbek tilshunosligiga qo'shgan hissalari
M20	O'zbek tilshunos olimlarining tilshunoslik nazariyasiga qo'shgan hissalari haqida (S.Usmonov, R.Rasulov, A.Abduazizov, H.Ne'matov, A.Nurmonov, N.Mahmudov va boshqa tilshunos olimlar haqida)
M21	An'anaviy va zamonaviy tilshunoslik munosabati masalasi. Sistem-struktur tilshunoslik, an'anaviy tilshunoslik, antroposentrik t-k.
M22	Fanlar integratsiyalashuvi natijasida shakllangan tutash sohalar: kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika, pragmalingvistika, antroposentrik tilshunoslik va bu sohalarning o'zbek tilshunosligida o'rganilishi.
M23	Fanlar integratsiyalashuvi natijasida turli nazariyalarning shakllanishi va rivojlanishi: maydon nazariyasi, valentlik nazariyasi va hk.
M24-25	Lingvistik tahlil metodlari. Tilshunoslikning tadqiqot metodlari. Umumiy va xususiy metodlar. Eksperimental-fonetik metod. Lingvogenetik tadqiqot metodlari (qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, rekonstruksiya, miqdoriy, transformatsion). Areal tadqiqot metodlari (qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, kartografik, metakartografik, statistik, kadastrlash).
M26-27	Tipologik tadqiqot metodlari. Distrubutiv metod. Transformatsion metod. Bevosita tashkil etuvchilarga ajratish metodi. Matematik tahlil metodlari. Tipologik tadqiqot metodlari (qiyosiy universal lingvistik usul sifatida, izomorfizm va allomorfizm). Distributiv metod. Transformatsion metod.
Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:	
A1	Tilshunoslik fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
A2	Tilning ijtimoiy tabiati. Til-tafakkur-nutq munosabati.
A3	Tilning semiotik tabiati.
A4	Tilning fonetik-fonologik sathi.
A5	Kombinator va pozitsion tovush o'zgarishlari.
A6	Tilning leksik-semantik sathi.
A7	Til taraqqiyotidagi leksik o'zgarishlar.
A8	Tilning morfologik va morfemik sathi.
A9	Tilning sintaktik sathi.
A10	Leksikografik sath.
A11	Yozuv va uning tarixiy ko'rinishlari.
A12	Tillarning paydo bo'lishi, shakllanishi va taraqqiyoti.
A13	Milliy tillarning rivojlanishi va tillarning chatishuvi masalasi.
A14	Dunyo tillari va tillar tasnifi.
A15	Til taraqqiyotidagi leksik o'zgarishlar.
8-semestr amaliy mashg'ulot mavzulari	

A1	"Tilshunoslik nazariyasi"ning tilshunoslikka oid nazariy va amaliy masalalarni hal qilishdagi asosiy fan sifatidagi ahamiyati haqida.
A2	Tilshunoslik fanining vujudga kelish tarixi. Til haqidagi fanning paydo bo'lishi.
A3	Tilshunoslik nazariyasi va uning shakllanishida yozuvning o'rni. Yozuv va uning taraqqiyot bosqichlari.
A4	Qadimgi hind va xitoy tilshunosligi. Panini tadqiqotlari. Qadimgi Xitoy lug'atlari.
A5	Qadimgi Yunoniston va Rimda tilshunoslik nazariyalari. Aleksandriya grammatika maktabi (Dionisiy). Qadimgi Rim tilshunosligi (Varron).
A6	O'rta asrlar tilshunosligi. Arab tilshunosligi. Arab tilshunosligi tarixidan.
A7	O'rta asrlar tilshunosligi. O'rta Osiyoda tilshunoslik. A.N.Forobiy, A.R.Beruniy, Ibn Sino, M.Zamaxshariylarning tilshunoslikka qo'shgan hissalari.
A8	Mahmud Koshg'ariy turkiy tillar qiyosiy grammatikasining asoschisi. Alisher Navoiyning chog'ishtirma tilshunoslikka asos solishi.
A9	O'rta asrlarda Yevropada tilshunoslik. Lotin tili, realistlar, nominalistlar, Anselm, Rossellin, Abelyar, konseptualizm, bahslar, ideyalar.
A10	Yevropa uyg'onish davri tilshunosligi. Klassik va semit filologiyasiga qiziqish. Milliy lug'atlar va grammatikalarni yaratish, tilga tarixiy yondashishning tug'ilishi va taraqqiyoti.
A11	Tilshunoslik tarixida mantiqiy-grammatik qarashlar. Mantiqiy-grammatik qarashlar, til birliklarini mantiqiy birliklar asosida o'rganish, Pol-Royal umumiy grammatikasi.
A12	Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning vujudga kelishi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik davrlari.
A13	Tilshunoslik maktablari. Moskva lingvistik maktabi, Qozon tilshunoslik maktabi, Praga tilshunoslik maktabi, Amerika tilshunoslik maktabi va hk.
A14	Naturalizm, psixologizm, til sotsiologiyasi (sotsiologizm), strukturalizm, etnolingvistika, neolingvistika.
A15	V.fon Gumboldt – umumiy tilshunoslikning asoschilaridan biri. F.de Sossyur ta'limoti va hk.
A16	XX asr o'zbek tilshunosligi
A17	Umumiy tilshunoslik va zamonaviy o'zbek tilshunosligi
A18	Antroposentrik tilshunoslik

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

1-semestr mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Mavzular va savollar	O'qish materiallari
Fonetikaning o'rganish sohasi va vazifasi. *Tilshunoslikning fonetika sohasini, uning tarkibiy qismlarini va vazifalarini o'rganish. Talaffuz a'zolari. Tovushlarning artikulyatsiyasi. Nutq tovushlarining tasnifi. Nutqning fonetik bo'linishi kabi masalalarni o'zlashtirish, tegishli adabiyotlardan konspekt*	[A 3] 10-35 b; [Q 14], 6-8 b; [Q 3], 7-38 b; [Q 13], 8-17; [Q 9], 8-12.

qilish, og'zaki javob berish.	
Tovushlarning nutqdagi pozitsion va kombinator o'zgarishlari. *Nutq jarayonida turli talaffuz buzilish holatlarining yuzaga kelish sabablarini tahlil qilish. Pozitsion va kombinator o'zgarishlarning turlarini o'rganish va har biriga badiiy asarlardan 5 tadan misol yozish. Og'zaki topshiriladi.*	[A 3], 28-34 b.; [A 7], 7-11 b.; [Q 3], 24-35 b.; [Q 13], 17-28 b.; [Q 9], 10-15 b.
Leksikologiya va semasiologiya haqida umumiy tushuncha. *Leksema, semema tushunchalari, so'zlarning ma'nolari o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish va har biriga badiiy asarlardan 5 tadan misol yozish, og'zaki topshirish*	[A 3],75-109 b.; [A 7], 11-44 b.; [Q 13], 28-67 b.
Terminologiya. Tilshunoslik terminlari. *Tavsiya etilgan adabiyotlardan hamda akademik A.Hojiyevning "Tilshunoslik terminlari lug'ati" kitobidan 50 ta terminini o'rganish, va ularning mazmunini yodlab aytib berish.*	[A 3;118-125 b., Q 13], 70-75 b.
Frazeologiya va uning semantik turlari. *Frazemalarning semantik turlari, ular o'rtasidagi omonimlik, sinonimlik, antonimlik munosabatining ifodalanishi o'rganiladi, konspekt qilinadi. Badiiy asardan topilgan misollar yordamida tahlil qilinadi. Og'zaki topshiriladi.*	[A 3], 118-121 b.; [A 7], 56-58 b.; [Q 13], 73-74 b.
Tilshunoslik va semiotika. *Tilning belgilar tizimi ekanligi, belgilarning turlari, ular ifodalayotgan ma'nolar, semiotika va semiologiya terminlari, belgilarning til vositalariga teng kelishi, ular orqali beriladigan axborotlar haqida o'rganiladi, to'plangan ma'lumotlar taqdimot tarzda og'zaki topshiladi*	[A 3], 159-167 b.; [A 7], 68-69 b.; [Q 13], 110-113 b.
Sharq mutafakkirlarining til shakllanishiga oid qarashlari. *Tilning shakllanishi, paydo bo'lishi va rivojlanishi haqidagi qarashlar. Sharq mutafakkirlaridan Ibn Sino, Farobiy, Beruniy, Koshg'ariy, Navoiy, Boburning qarashlari, tilning ravnaqi uchun qo'shgan hissalari, bu borada yaratgan asarlari haqidagi ma'lumot konspekt qilinadi, og'zaki topshiriladi.*	[A 3], 233-267 b.; [A 7], 86-94 b.; [Q 13], 154-182 b.
Til lug'at tarkibining boyishi. *Til lug'at sathining boyish yo'llari, ichki va tashqi manba, tashqi manbadan kirib kelayotgan so'z va tushunchalarning tilda o'rinlashishi, muqobil variant, tarjima masalalari tahlil etiladi. Vaqtli matbuot sahifalarida 10 tadan neologizmlarni topish. Konspekt qilinadi, og'zaki topshiriladi.*	[A 3], 274-317 b.; [A 7], 131-134 b.; [Q 13], 190-194 b.

Til oilalari: Hind-Yevropa tillar oilasi. Roman tillari. *Tillarning tasnifida geneologik tasnif. Til oilalari. Keng tarqalgan til oilalari, ularning turkumlarga ajralishi. Hind-Yevropa tillar oilasi, unga kiruvchi Roman tillari turkumi haqida tegishli adabiyotlardan konspekt qilish va og'zaki topshirish.*	[A 3], 323-333 b.; [A 7], 242-243 b.; [Q 13],73-93 b.
Til oilalari: Turkiy tillar oilasi. *Tillarning kelib chiqishi jihatidan til oilalariga birlashishi, turkiy tillar oilasiga mansub tillarning mushtarak xususiyatlari haqida konspekt qilish va og'zaki javob berish*	[A 3], 333-338 b.; [A 7], 250-254 b,; [Q 13], 73-93 b.
Yozuvning ahamiyati. *Insoniyat tarixida yozuvning ahamiyati, paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari, o'zbek yozuvlari tarixi bo'yicha tegishli adabiyotlardan konpekt qilish hamda og'zaki javob berish.*	[A 3], 353-355 b.; [A 7], 266-268 b.; [Q 13], 25-40 b.; [Q.9], 137-260 b.
Tilning tizim sifatidagi mohiyati. *Tilning alohida tizim sifatida o'rganilishi, til tizimini tashkil etadigan fonetik, leksik va grammatik vositalarning mohiyati. Ularning o'rganilishi, ular haqidagi nazariyalar tahlil qilinadi, konspekt qilinadi va og'zaki topshiriladi*	[A 3] 382-385 b.; [Q 13], 289-291b.; [Q 15] 25-40 b.
Tillarning o'zaro ta'siri. *Dunyo tillarining bir-biriga ta'siri, chatishuvi, uning natijasida paydo bo'lgan tillar, sun'iy tillar haqida ma'lumotga ega bo'lish, konspekt qilish hamda og'zaki topshirish.*	[A 3] 456-458 b.; [Q 13], 114-115 b.; [Q 15], 41-43 b.
Fonetikaning o'rganish sohasi va vazifasi. *Tilshunoslikning fonetika sohasini, uning tarkibiy qismlarini va vazifalarini o'rganish. Talaffuz a'zolari. Tovushlarning artikulyatsiyasi. Nutq tovushlarining tasnifi. Nutqning fonetik bo'linishi kabi masalalarni o'zlashtirish, tegishli adabiyotlardan konspekt qilish, og'zaki javob berish*	[A 3], 456-458 b.; [Q 13], 117-120 b.; [Q 15], 44-46 b.
Tovushlarning nutqdagi pozitsion va kombinator o'zgarishlari. *Nutq jarayonida turli talaffuz buzilish holatlarining yuzaga kelish sabablarini tahlil qilish. Pozitsion va kombinator o'zgarishlarning turlarini o'rganish va har biriga badiiy asarlardan 5 tadan misol yozish. Og'zaki topshiriladi.*	[A 4], 64-69 b.; [A 8], 34-37 b.; [A 6], 64-69 b.; [Q 16], 160 b.; [Q 17], 85 b.
Leksikologiya va semasiologiya haqida umumiy tushuncha. *Leksema, semema tushunchalari, so'zlarning ma'nolari o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish va har biriga badiiy asarlardan 5 tadan misol yozish, og'zak i topshirish*	[A 4], 64-69 b.; [A 8], 34-37 b.; [A 6], 64-69 b.; [Q 16], 160 b.; [Q 17], 85 b.
8-semestr mustaqil ta'lim mavzulari	
Tilning fonemalar tizimi. Fonema nazariyasi tarixidan. Fonemalar haqida turli fonologik maktab vakillarining fikrlari qarashlarini o'rganish.	A.A.1.12-22-b.Q.A.1.48-52-b.

O‘rta asrlarda Sharq tilshunosligi. Sharq mutafakkirlarining til shakllanishiga oid qarashlari.	Q.A.3.5-20-b; Q.A.4.7-38-b; Q.A.5.29-30-betlar
Uyg‘onish davrida Yevropa tilshunosligi.	A.A.6.59-60-b; A.A.8.42-58-b; Q.B.15.
Uyg‘onish davrida mantiqiy-grammatik qarashlarning shakllanishi Tilga tarixiy yondashish.	A.A.2.48-54-b; A.A.8.42-58-b;
O’rta Osiyoda qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning shakllanishi	Q.A.4.5-21-b.
Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning Yevropada vujudga kelishi va rivojlanishi.	A.A.2.57-63-b; A.A.8.58-63-b; A.A.6.59-65-b.
Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tarixidagi ikkinchi davri. Bu davrning o‘ziga xos xususiyatlari. Yosh grammatiklar maktabi.	A.A.2.57-63-b; A.A.8.58-63-b; A.A.6.74-75-b.
Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tarixidagi uchinchi davri va u davrning o‘ziga xos xususiyatlari	A.A.2.71-80-b; A.A.6.79-90-b; A.A.8.63-75-b.
V.fon Gumboldt – umumiy tilshunoslikning asoschilaridan biri	A.A.2.64-71-b; A.A.6.62-64-b; A.A.8.70-b.
F.de Sossyur ta’limoti va strukturalizm.	A.A.2.64-71-b; A.A.6.62-64-b; A.A.8.71-b.
A.Shleyxer va naturalizm ta’limoti	A.A.2.71-74-b; A.A.6.65-71-b; A.A.8.63-65-b. Q.A.8.100-104-b.
Amerika deskriptiv lingvistika qarashlari	Q.A.9.82-90-b.
Sotsiolingvistika. Psixolingvistika. Neolingvistika. Kompyuter lingvistikasi	A.A.2.95-102-b; A.A.8.84-90-b; Q.A. 8.63-72-b;Q.A.11; Q.A13.4-25-b.
Areal metodlar.	A.A.6.175-202-b; Q.A.1.145-152-b.
Tilshunoslik fanining zamonaviy tahlil usullari. Statistik metod, matematik tahlil metodlari va hk.	Q.A.9; 90-95; A.A.6.175-202-b; A.A.8.96-98-b.
Morfologiya va sintaksis doirasida qo’llaniladigan metodlar.	Q.A.9; 90-95-b; A.A.6.175-202-b; A.A.8.96-98-b.
XX asr o’zbek tilshunosligida qo’lga kiritilgan yutuqlar. A.G’ulomov, M.Asqarova, G.Abdurahmonov,	A.A.2.102-119-b.

Sh.Shoabdurahmonov, M.Mirtojiyev, S.Usmonov kabi olimlarning o'zbek tilshunosligiga qo'shgan hissalari	
O'zbek tilshunos olimlarining tilshunoslik nazariyasiga qo'shgan hissalari haqida	A.A.2.102-119-b.
Antroposentrik tilshunoslik	A.A.2.102-119-b.
Umumiy tilshunoslik va zamonaviy o'zbek tilshunosligi	A.A.2.95-102-b; A.A.8. 94-95-b.

3. **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

Tilning ijtimoiy tabiati, til va jamiyat munosabati, til va tafakkur munosabati, lison va nutq munosabati, asosiy lisoniy munosabatlar, til birliklari va nutq birliklarining o'zaro mutanosibligi, tilning semiotik tabiati, tilning ramzlar tizimi sifatidagi ta'rifi, til sathlari, lisoniy paradigma asoslari, lisoniy tasnif asoslari, tilning tarixiy taraqqiyoti va o'zgaruvchanligi, dunyo tillari va tillar tasnifi, tilshunoslikning ijtimoiy fanlar bilan bog'liqligi, tilshunoslikning tabiiy fanlar bilan bog'liqligi, qadimgi asrlar tilshunosligi, o'rta asrlar tilshunosligi, Evropa uyg'onish davridagi tilshunoslik *haqida tasavurga ega bo'lishi*;

- tilshunoslikning ijtimoiy va tabiiy fanlar kesimida paydo bo'lgan yangi chegaradosh fanlarni, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik nazariyalari va metodlarini, sotsiolingvistik nazariyalar va metodlarni, struktur tilshunoslik nazariyalari va metodlarini *bilishi va ulardan foydalani olishi*;

- tillarning tipologik tasnifini faktik material asosida yoritish, til tiplari, til tiplarining asosiy belgilarini farqlash, morfologik tasnifni agglyutinativ va flektiv tillar misolida tahlil qilish, morfologik shakllarning xilma-xilligi, tillarning morfologik tipologiyasini tahlil qilish, geneologik tasnifni til oilalari va til guruhlari asosida izohlash, agglyutinativ tillar, flektiv tillar, qardosh tillar va qardosh bo'lmagan tillar o'rtasidagi munosabatni yoritish, lisoniy va nutqiy birliklarning o'zaro munosabatini tahlil qilish, tilni umumiy, nutqni xususiy hodisa sifatida izohlash, til-tafakkur-nutq munosabatini mustaqil asoslash, tilshunoslik nazariyasi masalalari haqida mustaqil fikr yurita olish, diaxron tadqiqot metodlaridan foydalanish, sinxron tadqiqot metodlarini qo'llay olish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

4. **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**
   - ma'ruzalar;
   - interfaol keys-stadilar;
   - tarqatma materiallar;
   - ko'rgazmali qurollar;
   - Kompyuter;
   - Internet yangiliklari;
   - muammoli ta'lim;
   - qiyosiy tahlil.

5. **VII. Kreditni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil

	natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

	Asosiy adabiyotlar:
1.	Abduazizov A.Tilshunoslik nazariyasiga kirish. –Toshkent, 2010.
2.	Ирисқулов И.Тилшуносликка кириш. –Тошкент, 2009.
3.	Yo‘ldoshev I. Tilshunoslik asoslari.
4.	Rasulov R.Umumiy tilshunoslik. –Toshkent, 2013.
5.	Uluqov N. tilshunoslik nazariyasi.
6.	Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent, 2007.
7.	Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент, 2002.
	Tavsiya qilinadigan qo‘shimcha adabiyotlar:
1.	Абдуазизов А., Шереметова А. Общее языкознание. – Тошкент, 2004.
2.	Баскаков Н. А., Содиқов А. С., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. - Тошкент, 1979.
3.	Бушуй А.М., Сафаров Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. - Тошкент: Фан, 2007.
4.	Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. -Тошкент, 1993.
5.	Nurmonov A.Lingvistik tadqiqot metodologiyasiva metodlari.-Toshkent, 2010.
6.	Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. -Тошкент, 2001.
7.	Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. - Андижон, 2006.
8.	Раҳматуллаев Ш. Тил қурилишининг асосий бирликлари. -Тошкент, 2002.
9.	Раҳматуллаев Ш. Систем тилшунослик асослари. –Тошкент, 2007.
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O‘quv-uslubiy kengashining 2021 -yil ____-avgustdagi 1-son bayonnomasi bilan ma’qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas’ullar:** S.A.Karimov – SamDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori S.M.Umirova – O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dosenti, (PhD)
9.	**Taqrizchilar:** A.B. Pardayev SamDU, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (ichki) X.Z.Xayrullayev – SamDCHTI professori, filologiya fanlari doktori (tashqi)